<b>Xidirov Shohrux Bobir o'g'li</b>	
O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari.....	769
<b>Ernazarov Gulam Bekbayevich</b>	
Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni baholash va rivojlantirish mexanizmlari.....	774
<b>Mavulov Ravshan Nematjonovich</b>	
Barqaror rivojlanish va korxonalarda barqarorlikni ta'minlash zaruriyati.....	780
<b>Yakubova Dilfuza</b>	
Yashil iqtisodiyot sharoitlarida barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar va ekologik menejmentning o'rni.....	785
<b>Dilmurodov Abbas Anvar o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasi faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish .....	788
<b>Tuxtamishev Shodimurod Qurbonboyevich</b>	
Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish.....	795
<b>Axmedov G'ofurjon G'ulomjonovich</b>	
Turizm sohasini ekonometrik modellashtirishda qo'llaniladigan ekonometrik usullar va amaliy imkoniyatlar .....	801
<b>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</b>	
Sanoat tarmoqlarida investitsiyalar strukturasi iqtisodiy samaradorligi va innovatsiyalarni rag'batlantirish.....	807
<b>Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi</b>	
Mintaqa ziyorat turizmi samaradorligini oshirishda ekonometrik modellardan foydalanish.....	812
<b>O'rinova Durdona Botir qizi</b>	
Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni pest (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik omillar) tahlili.....	816
<b>Israilov Rustam Ibragimovich</b>	
Qazib olish sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishda muammolar va salbiy omillar: tahlil va zamonaviy yondashuvlar .....	825
<b>Abduraxmanov Davron Burxanjonovich</b>	
O'zbekistonning milliy merosi boyliklaridan turizmga foydalanish yo'llari .....	830
<b>Samarov Xonqul Qahhorovich</b>	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investision resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar .....	835
<b>Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li</b>	
Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy o'sishni indikativ baholash metodologiyasi.....	841
<b>Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li</b>	



Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....	847
<b>Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvohid bdurazzoq o'g'li</b>	
Механизмы устойчивого управления малым и средним бизнесом в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.....	852
<b>Зокирова Фарангиз Тулкиновна</b>	
Yashil bank xizmatlari va uni joriy etish bilan bog'liq muammolar.....	862
<b>Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi</b>	
Barqaror qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirlarida transport tizimlarini optimallashtirish.....	867
<b>Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi</b>	
Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.....	874
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b>	
Mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etish.....	881
<b>Salayev Jasurbek Komilovich</b>	
Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillardagi yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili.....	888
<b>Ismoilov Davronbek Iloxomjon o'g'li</b>	
Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirishning davlat qarzi siyosatiga ta'siri.....	893
<b>Tilabov Nasrulla Tashmurotovich</b>	
Модели Альтмана и Таффлера как инструмент диагностики финансовой устойчивости предприятий.....	897
<b>Утемуратова Бибихон Даниловна</b>	
Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslari.....	903
<b>Yakubov San'abek Ravshanbekovich</b>	
China's trade relations with Central Asia: an empirical analysis based on the trade gravity model.....	912
<b>Ye Maoqing</b>	
O'zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalar joriy etishning holati va yo'nalishlari.....	920
<b>Qutfiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li</b>	
Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
<b>Sobirov Muzaffar Azatovich</b>	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
<b>Садуллаева Муслимахон Саидамировна</b>	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
<b>Muydinov Erkin Djamaldinovich</b>	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
<b>Ibrohimov D.M.</b>	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
<b>Sadikov Iskandar Gayratovich</b>	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
<b>Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich</b>	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
<b>Mamashokirova Iroda Samar qizi</b>	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
<b>Donaboyev Jahongir Husan o'g'li</b>	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
<b>Юсупова Нигина Тажиевна</b>	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li</b>	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию .....	977
<b>Шарипова Шахло Истамовна</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
<b>Tleubergenov Raxat Shahibaevich</b>	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
<b>Rahmonov Rasul Ne'matovich</b>	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili.....	994
<b>To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li</b>	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach.....	999
<b>Laylo Primova</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar.....	1006
<b>Yerejepova Bibisara Abibullayevna</b>	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов .....	1010
<b>Хакбердиева Нозима Кахрамоновна</b>	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini.....	1015
<b>Asadova Maftuna Sa'dullaevna</b>	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
<b>Ismailov Temur Pulatovich</b>	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili .....	1024
<b>Sharipov R.S.</b>	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari.....	1030
<b>Rasulov Jamshid Karimovich</b>	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari.....	1036
<b>Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi</b>	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili .....	1040
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b>	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish.....	1045
<b>Smetov Murat Inyatovich</b>	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili.....	1050
<b>Bayniyazova Malika Polatovna</b>	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	1056
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna</b>	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход .....	1062
<b>Тулаев Дилшод Юсуфович</b>	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi.....	1068
<b>Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich</b>	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari.....	1073
<b>Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich</b>	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati .....	1078
<b>Nilufar Raxmonova Yorqinovna</b>	
Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati.....	1083
<b>Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li</b>	



# NAMANGAN VILOYATIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SALOHIYATI

Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti (PhD)

[sodiqjonabdusattorov@gmail.com](mailto:sodiqjonabdusattorov@gmail.com)

ORCID: 0009-0000-6779-9425

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Namangan viloyatida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining salohiyati, rivojlanish omillari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi faktorlar tahlil qilinadi. So'nggi yillarda xususiy bolalar bog'chalari sonining keskin ortishi, bu sohadagi davlat siyosati, tadbirkorlik imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlar natijasida yuzaga kelgan salmoqli o'sish holati Namangan viloyati misolida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nodavlat maktabgacha ta'lim, xususiy bog'chalar, ta'lim tadbirkorligi, davlat-xususiy sheriklik (DXSH), ta'limda innovatsiyalar.

**Abstract:** This thesis explores the potential of non-governmental (private) preschool educational institutions in the Namangan region, analyzing the internal and external factors influencing their growth. The rapid increase in the number of private kindergartens, state support policies, entrepreneurial opportunities, and growing social demand are examined through empirical data.

**Key words:** Non-governmental preschool education, private kindergartens, Namangan region, educational entrepreneurship, public-private partnership (PPP), educational innovations.

**Аннотация:** В данной тезисной работе рассматривается потенциал негосударственных дошкольных образовательных учреждений в Наманганской области, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на их развитие. Быстрый рост числа частных детских садов, поддержка со стороны государства, предпринимательские возможности и социальный спрос рассматриваются на основе конкретных данных.

**Ключевые слова:** Негосударственное дошкольное образование, частные детские сады, образовательное предпринимательство, государственно-частное партнёрство (ГЧП), инновации в образовании.

## KIRISH

O'zbekiston ta'lim tizimida erta yoshdagi bolalarni sifatli tayyorlash bo'yicha so'nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib, unda xususiy sektorning ulushi sezilarli oshdi. Bu jarayon davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va nodavlat (jumladan, oilaviy) maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning jadal ko'payishi bilan bog'liq [1]. Bu esa davlat tomonidan yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalanib, sifatli ta'lim-tarbiya xizmatlarini taqdim etishga yo'naltirilgan. Namangan viloyati respublika bo'yicha nodavlat MTT soni va faoliyati jihatidan yetakchi hududlardan biri sanaladi. Ushbu maqolada viloyatdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati, ularning faoliyat yo'nalishlari, mavjud muammolar hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon banki mutaxassislari Jamil Salmi va Samira Nikaido (2025) tomonidan tayyorlangan blog maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yildagi 27 foizdan 2023-yilda 74 foizga yetgani, bunda davlat-xususiy sheriklikning hal qiluvchi omil bo'lgani qayd etilgan. UNICEF (2023) hisobotida esa ta'limga yo'naltirilayotgan resurslarning YalMdagi ulushi 5 foizdan oshgani, bu maktabgacha ta'limni kengaytirishga xizmat qilgani ta'kidlangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2023-yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar nodavlat sektorni rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'ldi. Jumladan, 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmon davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini keng joriy qilishni belgilab berdi [3].



O'zbek olimlari ham bu mavzuni chuqur o'rganishmoqda. Masalan, T. Karimov (2022)[4] o'z tadqiqotida nodavlat MTTlarning ta'lim sifati va pedagogik innovatsiyalarni joriy etishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Shuningdek, F. Tojiboyeva va N. Sodiqova (2021)[5] tadqiqotlarida oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari modelining Namangan va Andijon viloyatlarida joriy etilishi ota-onalar ehtiyojlarini qondirishdagi o'rnini ko'rsatgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) salohiyatini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy adabiyotlar asosiy material sifatida foydalanildi: Davlat statistika ma'lumotlari – Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil 1-yanvar holatidagi maktabgacha ta'lim bo'yicha ma'lumotlari. Normativ-huquqiy asoslar – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, jumladan, 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari – Jahon banki (2025), UNICEF Uzbekistan (2023) hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari. Ilmiy adabiyotlar – Karimov (2022), Tojiboyeva va Sodiqova (2021) kabi milliy olimlarning tadqiqot ishlari, shuningdek xalqaro maqolalar va tahlillar.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi: Statistik tahlil – rasmiy statistik ko'rsatkichlar asosida nodavlat MTTlar soni, ulushi va o'rinlar salohiyatining dinamikasi hisoblab chiqildi. Qiyosiy tahlil – davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligi qiyoslandi. Kontent-analiz – hukumat qarorlari va xalqaro hisobotlar matnlari tahlil qilinib, nodavlat sektor rivojiga oid ustuvor yo'nalishlar ajratib olindi. So'rovnomalar va suhbat metodi – ota-onalar va pedagoglar fikr-mulohazalari yig'ilib, nodavlat MTTlar xizmat sifati va mavjud muammolar yuzasidan subyektiv baholar olindi. Adabiyotlar tahlili – milliy va xorijiy ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va amaliy tadqiqotlar o'rganilib, nazariy asoslar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda Namangan viloyatida xususiy bolalar bog'chalari soni sezilarli darajada oshdi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2024-yilning may va iyun oylarida viloyatda 206 ta yangi xususiy bolalar bog'chasi tashkil etilgan. Bu ko'rsatkich shu davr ichida O'zbekistonning barcha hududlari orasida eng yuqori bo'lib, Farg'ona (189 ta) va Samarqand (141 ta) viloyatlarini ortda qoldirgan [6].

So'nggi yetti yil ichida Namangan viloyatida nodavlat (xususiy) bolalar bog'chalari soni misli ko'rilmagan darajada oshdi (1-rasm). Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda atigi 10 ta bo'lgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (nodavlat MTT) soni 2024-yilga kelib 3 347 taga yetgan bo'lib, bu 300 martadan ortiq o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (davlat MTT) ancha sekinroq sur'atda o'sdi – ularning soni 2017-yilda 462 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 615 taga yetdi.



1-rasm. Namangan viloyatidagi davlat va nodavlat MTT sonining 2017-2024-yillarda o'sib boorish trendi [7]



Bu o'sish bir-biri bilan bog'liq bir qator omillar bilan izohlanadi:

**Demografik yuklama:** Bolalar sonining barqaror o'sishi maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

**Hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar:** So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, xususan, nodavlat sektorni kengaytirish bo'yicha bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi [8]. Bu islohotlar tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratib, nodavlat MTTlar sonining keskin oshishiga sabab bo'ldi.

2018-yil 30-iyuldagi 595-sonli qaror bilan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ochish va faoliyat yuritish tartibi belgilandi. Bu qaror tadbirkorlik subyektlariga o'z uylarida 7 dan 50 nafargacha bolalarni qabul qilish imkonini berdi. Shuningdek, bu tashkilotlar o'zining mualliflik dasturlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ldi [9].

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida qo'llab-quvvatlash: 2022-yil 2-avgustdagi 426-sonli qaror bilan nodavlat MTTlarga davlat budjeti hisobidan subsidiyalar va kompensatsiyalar ajratish tartibi belgilandi. Bu yordamlar pedagog xodimlarning ish haqi, kommunal to'lovlar va boshqa xarajatlarni qoplashga yo'naltirilgan [10].

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qaror bilan ayrim faoliyat turlarini, jumladan, nodavlat MTTlarni ochish uchun litsenziya olish tartibi elektron tizim orqali amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirdi [11].

Ushbu siyosatlar natijasida, 2017-yilda O'zbekistonda atigi 250 ta nodavlat MTT mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 18 500 dan oshdi [12]. Namangan viloyatida esa 2024-yil holatiga ko'ra 3 347 ta nodavlat MTT faoliyat yuritilgan.

**Biznes salohiyati va tadbirkorlik imkoniyatlari:** Nodavlat maktabgacha ta'lim sektori O'zbekistonda tadbirkorlar uchun jozibador sohalardan biriga aylandi. Bu sohaning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Yuqori talab: Aholi sonining o'sishi va yosh oilalar sonining ko'payishi maktabgacha ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa yangi bog'chalar ochish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam: Nodavlat MTTlar uchun ajratilayotgan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.


Innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish imkoniyati: Nodavlat MTTlar o'zining mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish huquqiga ega bo'lib, bu ularga raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi.

Ijtimoiy ahamiyat: Maktabgacha ta'lim sohasiga investitsiya kiritish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyatda ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi.

Bugungi kunda ko'plab tadbirkorlar nodavlat MTTlar ochishga qiziqish bildirmoqda va bu soha O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu tendensiya boshqa hududlar bilan taqqoslaganda ayniqsa muhim. Masalan, faqatgina 2024-yilning may-iyun oylarida Namangan viloyatida 206 ta yangi xususiy bog'cha tashkil etilib, bu borada O'zbekistonning barcha hududlari orasida yetakchi bo'lgan. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining keskin ko'payishi nafaqat ta'limga kirishni kengaytiradi, balki xizmat sifati va xilma-xilligini oshiradi, ish o'rinlarini yaratadi hamda raqobatni kuchaytiradi — bu esa erta yoshdagi ta'limda innovatsiyalar va samaradorlikni rag'batlantiradi.

Shu sababli, ko'plab tadbirkorlar nodavlat MTTlar ochishga qiziqish bildirmoqda va bu soha O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu tendensiya boshqa hududlar bilan taqqoslaganda ayniqsa muhim. Masalan, faqatgina 2024-yilning may-iyun oylarida Namangan viloyatida 206 ta yangi xususiy bog'cha tashkil etilib, bu borada O'zbekistonning barcha hududlari orasida yetakchi bo'lgan. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining keskin ko'payishi nafaqat ta'limga kirishni kengaytiradi, balki xizmat sifati va xilma-xilligini oshiradi, ish o'rinlarini yaratadi hamda raqobatni kuchaytiradi — bu esa erta yoshdagi ta'limda innovatsiyalar va samaradorlikni rag'batlantiradi.

Shunga qaramay, tarbiyalanuvchilar qamrovi jihatidan hamon Davlat MTT tashkilotlari yetakchilik qilmoqda (2-rasm). 2017-yilda Namangan viloyati bo'yicha xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (MTT) borayotgan bolalar soni atigi 677 nafarni tashkil etgan bo'lsa, davlat MTTlarida esa bu ko'rsatkich 49 241 nafar edi. 2024-yilga kelib, xususiy MTTlar keskin o'sib, 93 212 nafar bolaga xizmat ko'rsata boshlagan, davlat MTTlarida esa bu ko'rsatkich 116 582 nafarga yetgan.



2-rasm. Namangan viloyatidagi davlat va nodavlat MTT tarbiyalanuvchilari soni bo'yicha ko'rsatkichlari [13]

Oxirgi 8 yil davomida Namangan viloyatida xususiy MTTlarga qatnayotgan bolalar soni 137 barobardan ko'proqqa oshgan bir paytda, davlat MTTlari qamrov jihatdan atigi 2,3 baravar o'sishga erishganlar.

Bu keskin o'sish quyidagilarga ishora qiladi:

- xususiy maktabgacha ta'limga kuchli talab mavjudligi;
- xususiy sektor rivojlanishini ta'minlayotgan samarali siyosiy muhit;
- ota-onalar orasida xususiy bog'chalarga nisbatan ishonch va ustuvorlikning oshib borayotgani.

Namangan viloyatidagi nodavlat MTT larining sondagi ulkan ustunligiga qaramay, tarbiyalanuvchilar qamrovi jihatdan hamon davlat MTT laridan ortda borayotganligining mantiqiy javobini bilish uchun nodavlat MTT larining tarkibiga qanday subyektlar kirishini ko'rib o'tish kifoya qiladi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatidagi nodavlat MTT ning turlari va qamrov soni bo'yicha ko'rsatkichlari (2017-2024)

Yillar	Xususiy		DXSh		Oilaviy	
	MTT soni	Qamrov	MTT soni	Qamrov	MTT soni	Qamrov
2017	10	677	0	0	0	0
2018	49	2769	3	150	40	987
2019	71	3972	23	1549	556	12187
2020	71	6966	38	3335	935	20925
2021	70	6452	43	4415	1864	50022
2022	69	6090	54	5087	1997	58160
2023	69	3328	57	5545	2656	74962
2024	69	3298	71	7311	3207	82603

Xususiy MTTlar 2019-yildan boshlab son jihatdan nisbatan barqaror bo'lib qolgan (taxminan 69–71 ta atrofida). Qamrov 2020-yilda eng yuqori darajaga (6 966 nafar bola) yetgan, ammo 2024-yilga kelib 3 298 nafarga tushgan – bu esa talabning kamayganini yoki mavjud raqobatchilarning o'sishini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatining har bir tumanida, ayniqsa 2018-yildan keyin, xususiy maktabgacha ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Bu holat milliy ta'lim islohotlari va investitsiya rag'batlantiruvlari bilan uzviy bog'liq. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlanish faqat shaharlargagina emas, balki eng chekka tumanlarga ham kengaymoqda – hozirda ayrim qishloq hududlarida ham o'nlab, hatto yuzlab nodavlat



bog'chalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu o'sish O'zbekistonda nodavlat model orqali erta ta'limga bo'lgan talab, tadbirkorlik va ta'limga kirish imkoniyatining ortib borayotganini yaqqol ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://kun.uz/en/news/2024/07/06/over-2000-private-kindergartens-opened-in-uzbekistan-in-7-years>
2. World Bank. (2025). Preschools, Paychecks, and Progress: Early Childhood Education in Uzbekistan. Authors: J. Salmi & S. Nikaido. Washington, DC.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). PF-79-son Farmon. Maktabgacha va maktab ta'limini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
4. Karimov, T. (2022). Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.
5. Tojiboyeva, F., & Sodiqova, N. (2021). Oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligi: Namangan va Andijon tajribasi. Maktabgacha ta'lim muammolari, 3(2), 45–52.
6. uzdaily.uz.2024 ma'lumotlari asosida <https://www.uzdaily.uz/en/some-1100-private-kindergartens-were-established-in-uzbekistan-in-may-june>
7. Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida farmoni, Toshkent sh., 2019-yil 17-yanvar, PF-5635-son
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida" qarori, Toshkent sh., 2018-yil 30-iyul, 595-son
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori Toshkent sh., 2022-yil 2-avgust, 426-son
11. <https://www.uzedu.uz/uz/news>
12. <https://daryo.uz/2023/08/16/davlat-bogchalar-kopmi-yoki-xususiy-ozbekistondagi-mttlar-soni-malum-qilindi>
13. Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
14. Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>